

SPORT VA TIL UYG`UNLIGI. ATLETIK TERMINALOGIYALARNING XORIJIY SO`ZLARDAN KELIB CHIQISHI

Mansurov Zuhur Shuhratjon o`g`li

Guliston Davlat Pedagogika Instituti

Jismoniy-Madaniyat 30-22 guruh talabasi

Abdunabiyeva Nigina Dilshod qizi

Guliston Davlat Pedagogika Instituti

Xotijiy til va adabiyoti 10e-22 guruh talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada sportda foydalaniladigan terminalogiylarning tarjimasini va uning mohiyati haqida so`z yuritilgan.

Kalit so`zlar: Sport, Xorijiy til, Til, Termin, O`yinchi, Terminologiya, Raqib, Sportchi, Ingliz tili, Zarba.

Vatanimiz ravnaqi va halqimiz faravonligi taminlashni muhim sportlari, xar tomonlama sog'lom va barkamol avlodni shakllantirish, jismoniy tarbiya va sportni keng rivojlantirish, xalq manfaati uchun butun borlig'i bilan kurasha oladigan insonlarni tarbiyalashda sportning o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Sportga bõlgan qiziqish bugungi hayotimizda kundan kunga ortib bormoqda, yoshlar shuningdek kattalar orasida ham turli xil sport bilan havaskor yoki professional tarzda shuğullanish odatiy tusga aylanganligi sir emas. Shu bilan birgalikda zamonaviy dunyoda ingliz tili ham õz tasirini yõqotmasdan qolmadi. Xorijiy til sportda shu kungacha shakllanib kelgan terminlarning asosiy ildizi hisoblanadi. Bizga mashhur bõlgan har bir sport turida eng kam hisobda 10 dan ortiq xorijiy sõz ishtirok etadi.

Basketbol sport turi xorijiy so`zlariga boy sportlardan biri hisoblanadi.

•**Basketball** ('ba:skɪtbɔ:l) inglizcha basket-savat, ball-to`p so`zlaridan olingan bo`lib, savat to`pi degan manoni anglatadi. Bu o`yinning asoschisi James Naismith bo`lgani sababli oyinning nomini ham "Naismith ball" (Neysmit to`pi) deb atash taklifi berilgan. Ammo James Naismithning o`zi bu taklifni rad etgan, bu oyinning asosiy jihozlarini savat va to`p tashkil etganligi tufayli bu oyin "Basketball" (Savat to`pi) deb nomlangan.

Basketbol o`yinida har bir jamoada 5 ta o`yinchi bo`ladi. O`yinchilar turli xil pozitsiyalarda o`ynay oladilar.

•**Point Guard (PG)** ('pɔɪnt ɡɑ:d) asl ingliz tilidan kirib kelgan bõlib jamoa boshqaruvchisi degan ma'noni anglatadi. Point- asosiy, bosh; guard -qõriqlõvchi. Shu sõzlar ma'no jihatidan bu pozitsiyaning mohiyatini keltirib chiqaradi. U to`pni egallab, hujumga boshlaydi va o`z jamoa o`yinchilariga otishlarni amalga oshiradi. U ham

ochko oladigan, ham ochko beradigan bo'lishi kerak. Uning asosiy xususiyatlari - tezkorlik, reaksiya, koordinatsiya va intellekt.

• **Shooting guard (SG)** ('ʃu:tɪŋ ɡɑ:d) shooting-otmoq, o'q uzmoq; guard-qo'riqchi ya'ni to'p ni uloqtiruvchi, bu jamoaning asosiy ochko oluvchisi, u to'pni savatga tashlashda mahoratli bo'lishi kerak. U ham uzoqdan, ham yaqinidan atishlarni amalga oshirishi mumkin. Uning asosiy xususiyatlari - aniqlik, kuch, doimiylik va himoya.

• **Small forward (SF)** (smɔ:l 'fɔ:wəd) small-kichik, forward-oldinga (hujumchi) yani qisman hujumchi. Bu jamoaning hujumchi va himoyachi o'yinchisi, u har ikkala tomonda ham faol ishtirok etishi kerak. U ham ochko oladigan, ham riqiblarni bloklashga qodir bo'lishi kerak. Uning asosiy xususiyatlari – bo'y, atlantiklik, texnika va jasorat.

• **Power forward (PF)** ('paʊə(r) 'fɔ:wəd) power-kuch, forward-oldinga (hujumchi) yani asosiy hujumchi. Bu jamoaning kuchli va bo'yi o'yinchisi, u savat ostida riqiblar bilan kurashadi va rebayndlarni egallaydi. U ham ochko oladigan, ham riqiblarni himoyalashga qodir bo'lishi kerak. Uning asosiy xususiyatlari - kuch, bo'y, himoya va rebaynd.

• **Center (C)** ('sentə(r)) center-markaz, ya'ni maydonning markazida oynaydi va bu jamoaning eng boyli va kuchli o'yinchisi, u savat ostida raqiblar bilan kurashadi va rebayndlarni (ingl. Rebound-urib qaytarish) egallaydi. U ham ochko oladigan, ham riqiblarni bloklashga qodir bo'lishi kerak. Uning asosiy xususiyatlari - kuch, boy, blok va rebaynd.

Shuningdek, bu kabi sportlardan biri gandbol (Handball) hisoblanadi va u ham anchagina ommabopdir, bu kattalar uchun ham o'smir yoshlar uchun ham birdek ma'qul bo'lgan chinakam o'yindir. Bu sport Daniya mamlakatida Holger Nielsen tomonidan 1898-yilda vujudga kelgan. Bundan oldin ham gandbol ko'rinishidagi sportlar mavjud bo'lgan va u turli mamlakatlarda turlicha nomlangan, bundan tashqari hamma bu sportni oziga mos qoidalar bilan o'ynagan, 1898-yilda esa bu o'yinning haqiqiy standart shaklini ya'ni hozirgi zamonaviy ko'rinishini Holger Nielsen shakllantirgan.

Bu sport nomining kelib chiqishi ingliz dunyosiga borib taqaladi. Hand (**hænd**)-qo'l, ball (**bɔ:l**)-to'p ya'ni handball (**hænd bɔ:l**)-qo'l to'pi degan ma'noni o'zida mujassamlashtiradi. Bu esa bizning mamlakatimizga "Gandbol" deb shevalashib o'zgarib kirib kelgan va mamlakatimizda hamma uni gandbol deb ataydi, boshqa mamlakatlarning aksariyati "Handball" deb ataydi va ayrimlari o'zining dialektiga moslashtirgan.

Court player –ingl. **Court** (kɔ:t)-o`yin maydoni, **player**(pleɪ.ər)-o`yinchi ya`ni maydon o`yinchisi degan ma`noni anglatadi. Bu handbaldagi barcha jamoa a`zolariga nisbatan ishlatiladigan xorijiy so`zdir, darvozabon pozitsiyasidan tashqari maydonda o`ynaydigan o`yinchilarning barchasi maydon o`yinchisi deb nomlanadi.

Goalie –ingl.(gəʊ.li) shuningdek, goaltender yoki goal-keeper deb atasa ham bo`ladi. Raqib gol urishga urinayotganda darvozani himoya qiladigan o`yinchi. Unga darvoza maydoni ichida o`ynashga ruxsat beriladi.

Free throw – ing. **Free** (fri:)-erkin, bo`sh va **throw** (θrəʊ)-otish degan so`zlaridan jamlangan bo`lib erkin otish, yani fudbol o`yinidagi jarima zarbasi ro`lini gandbolda bajaradi. Oyin davomida qaltis harakatlar orqali **foul** (qoida buzish) qayd etilgan bo`lsa, raqib jamoa o`yinchilari tomonidan ijro etiladi.

Penalty throw – ing. **Penalty** ('pen.əl.ti) -jarima, yani jarima otishi hisoblanadi. Buning Free throwdan farqli jihati shundaki, bunday holatda raqib jamoa bu jarimani 7-metr masofadan amalga oshirishadi. Bundan ko`rinib turibdiki, bu fudboldagi 11-metrlik zarbaning gandboldagi ko`rinishi.

Referee's throw – ing. **Referee's** (ref.ə'ri:)-hakamning, yani hakamning otishi deb tarjima qilinadi. Bunday holat asosan o`yinga tashqi omillar tasir ko`rsatib o`yinga halaqit berganida hakam o`yinni to`xtatadi va hodisa sodir bo`lgan joydan to`pni adolatli ravishda o`yinga tashlab beradi.

Dive shot – ing. **Dive** (darv)-sho`ngish, keskin va **shot** (ʃɒt) -otish degan so`zlardan olingan va umumiy ma`noda “keskin otish” degan manoni anglatadi. Ya`ni bu gandbolchilarning darvozaga qarab sakrash orqali amalga oshiradigan zarbasidir.

Goal – ing. “Goal” (gəʊl) ning to`g`ridan to`g`ri tarjimasini “maqsad” ya`ni oyinning asosiy maqsadi raqib darvozasini ishg`ol qilish va g`alabani qo`lga kiritish.

Throw-in – ing. **Throw in** ('θrəʊ.in)-ichkariga tashlash, yani yon chiziqdan to`pni o`yinga kiritish.

Throw-on – ing. **Throw on** (θrəʊ ɒn)-otish (to`pni), o`yin boshlanayotganda, gol kiritilganda va taymlar oralig`ida to`pni maydonga kiritiladigan vaziyat hisoblanadi.

Throw out – ing. **Throw out** (θrəʊ aʊt)-tashlash (to`p), bu holatda esa darvozabon to`pni o`yinga kiritib berishi hisoblanadi. Ko`rinib turganidek bunday to`pni tashlab berishlar turli xil vaziyatlarga qarab turli xil nomlanadi, bizning mamlakatimizda esa barchasi deyarli bir nomga ya`ni “topni tashlash” manosi anglatadi.

Yuqoridagi so`zlarni asosan xalqaro musobaqalarda uchratish mumkin, ammo ularning aksariyati deyarli barcha mamlakatlarning sport olamidagi nutqida ona tilisi bilan teng o`rinda ishlatiladi. Bu kabi so`zlar sportning turlariga qarab soni oshib boraveradi, yuqoridagi misollarni okeandan bir tomchi desak mubolg`a bo`lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Gandbol tarixi va o'yin qoidalari" Toshkent 2016
2. www.wikipedia.org
3. EHF GLOSSARY OF HANDBALL TERMS AND EXPRESSIONS season 2022/23
4. Dictionary.cambridge.org
5. "Basketbol haqida: tarixi, qoidalari va qiziqarli faktlar" o'quv qo'llanmasi